

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ABDUSALAMOVA LOBAR AKBAR QIZI**

**CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA ODOROKOLOFONIK BIRLIKLAR  
POETIKASI (rus tilidagi asarlari va ularning o‘zbekcha tarjimalari  
materialida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

UO‘K: 821.1611:821.512.122+82-31+81’25

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Abdusalamova Lobar Akbar qizi**

Chingiz Aytmatov ijodida odorokolofonik birliklar poetikasi  
(rus tilidagi asarlari va ularning o‘zbekcha tarjimalari materialida)..... 3

**Абдусаламова Лобар Акбар кизи**

Поэтика одороколофонических единиц в творчестве Чингиза Айтматова  
(на материале его произведений на русском языке и их узбекских  
переводов) ..... 27

**Abdusalamova Lobar Akbar kizi**

The Poetics of Odorocolophonic Units in the Works of Chingiz Aitmatov  
(based on his works in Russian and their Uzbek translations)..... 53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 58

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO  
UNIVERSITETI**

**ABDUSALAMOVA LOBAR AKBAR QIZI**

**CHINGIZ AYTMATOV IJODIDA ODOROKOLOFONIK BIRLIKLAR  
POETIKASI (rus tilidagi asarlari va ularning o‘zbekcha tarjimalari  
materialida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3812 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdchi.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Ismailov Anvar Rustamovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Toirova Dilfuza Fayzullayevna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Abduvaxabova Umeda Mamatyusufovna**  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "15" may soat 12<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail:info@samdchi.ru).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (63044-raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "24" aprel kunida tarqatildi.  
(2026-yil "24" aprel daqi 28 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**D.A. Kiselyov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy matn poetik tahlilining zamonaviy yoʻnalishlarini oʻrganish matnning mikrodetallari, xususan, odorokolofonik birliklar tahliliga nisbatan qarashlar hanuz shakllanish bosqichida boʻlib, ular fanlararo, ayniqsa, poetik-struktur, psixo-semantik yondashuvdagi tadqiqotlar uchun kam murojaat qilingan mavzulardan biri boʻlib qolmoqda. XX asr boshlariga kelib jahonning koʻpgina rivojlangan davlatlarida nafaqat til oʻrganish, balki intellektual salohiyatga ega, yuksak maʼnaviyatli, umummilliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq shaxsni tarbiyalashning muhim vositasi sifatida nutqni – uning barcha mikrodetallari bilan yaxlitlikda anglash lozimligi ham tan olindi. Shu bois, adabiyotshunoslik oldiga muhim ijtimoiy-siyosiy buyurtma – odorokolofonik birliklar poetikasi, xususan, koloristika, odorizmlar va fonologiya adabiyotshunoslikning oʻrganish obyekti sifatida: ilmiy-metodologik asoslar hamda milliy va xalqaro tajribaning tadqiqi asosida zamonaviy-hayotiy mezonlardan kelib chiquvchi muhim xulosalarga erishish vazifasi ham qoʻyildi va bugungi kun filologiyasi uchun ushbu tadqiqot dolzarb hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida hozirgi kunda ilm-fanning zamonaviy yoʻnalishlari, jumladan, lingvopoetika, poetik struktur tahlil vositasida olamning lisoniy va badiiy manzarasini oʻrganish hamda madaniyatlararo aloqalar borasida keng koʻlamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda alohida eʼtibor yozuvchining ijodiy faoliyatida badiiy makonni idrok etish, asar mazmunining shakllanishi jarayonida kognitiv tuzilmalarning rolini aniqlash kabi muammolarga qaratilmoqda. Poetik tahlil usuli bevosita kognitiv modellashtirish usuli bilan bogʻliq va uygʻun boʻlib, badiiy matnni nafaqat muallifni uning yaratuvchisi sifatida anglash, balki oʻquvchi nuqtai nazaridan ham bu ijod mahsulini chuqur oʻrganish uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Kognitiv yondashuv esa matnning lingvopoetik tarkibi va matnda tasvirlangan badiiy mazmunni toʻlaqonli idrok etishni taʼminlovchi shakllar sathida, jumladan, odorizmlar, koloristik va fonologik detallar oʻrtasidagi munosabatni ham aniqlash imkonini beradigan ikki va koʻp tomonlama dialogni nazarda tutadi hamda ularning tarjimada saqlanishini qiyoslashga va idrok etilishini baholashga yordam beradi.

Mamlakatimizning bugungi mavqei, jahon hamjamiyatida tutgan oʻrni, qolaversa, globalizm fenomeni bilan bogʻliq turli omillar nutq va uning badiiyati masalasiga yanada jiddiy yondashuvni taqozo qilmoqda. Oʻzbekistonda til siyosati borasida olib borilayotgan keng koʻlamli islohotlar nafaqat oʻzbek tili taraqqiyotida yangi davr boshlanishi, balki adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlarining ham yangi bosqichga koʻtarilishiga sabab boʻldi. Bunda shaxsning ijodiy, mantiqiy va assotsiativ tafakkur qilish, oʻz fikrini nutq sharoitiga mos ravishda toʻgʻri va ravon ifodalash kompetensiyasini rivojlantirish, muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish uchun xizmat qiladigan amaliy tadqiqotlarga eʼtibor kuchaydi. Yurtimizda chet tillari va xorijiy adabiyotni oʻrganish, xalqaro aloqalarni kengaytirish hamda oʻzbek madaniyati namunalarini boshqa mamlakatlarda targʻib etish hukumat darajasidagi jiddiy siyosat sifatida muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz barkamol va intellektual

shakllangan avlodni tarbiyalashda asosiy ma'naviy-axloqiy omil haqida so'zlaganida: "Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyat kerak. Ilm yo'q joyda qoloqlik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi", – degan fikrni bildiradi<sup>1</sup>. Ana shundan kelib chiqilsa, turkiy tilli jahon adabiyotining yorqin vakili Chingiz Aytmatov ijodi poetikasi, aynan, ana shunday katta ilmiy ahamiyatga ega tadqiqot obyektidir. Chingiz Aytmatov asarlarining badiiy tili, muallifning so'z qo'llash mahorati, asarlarida tasvirlangan odorokolofonik detallar poetikasi va ularning o'zbekcha tarjimada berilishi, shuningdek, mazkur muammoga inglizabon adabiyotshunosligining munosabati deyarli o'rganilmagan, asarlarini tadrijiy planda, o'zbek tiliga tarjima matnlarini keng jalb etgan holda, qiyosiy tadqiq etish adabiyotshunoslar e'tiboridan chetda qolgan dolzarb ilmiy masalalardandir.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 24-yanvardagi Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga Murojaatnomasi hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligida bevosita badiiy matn poetikasi va uning muayyan unsurlari, xususan, odorokolofonik tushunchalarni ifodalovchi birliklar poetikasi hamda ularning matnda qo'llanishiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar qariyb uchramaydi. Holbuki, ilg'or jahon adabiyotshunosligida mazkur muammo D.Braun, Sh.D.Grexem, E.Kualin, S.Soucek, C.J.Avins, K.Klark, N.Shnaydman, A.Duishembiyeva<sup>2</sup> kabi olimlar tomonidan muayyan darajada ishlangan.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

<sup>2</sup> Brown D. Soviet Russian Literature since Stalin. L. – Melbourne: Cambridge University Press, 1978. – 404 p.; Clark K. The Mutability of the Canon: Socialist Realism and Chingiz Aitmatov's "I dol'she veka dlitsia den". – Urbana: Slavic Review Press, 1984. – <https://philology-journal.ru/en/issue/phil.2018>. – P. 8-12; Duissembiyeva A.N. Ch. Aitmatov's story "Farewell, Gulsary!" in the assessment of the american literary critics Soucek S., Qualin A., Graham Sh.D. -Tambov: Gramota, 2018. – 8(86), Ch. 1. – P. 17-20; Graham Sh.D. Chingiz Aytmatov's Proschay, Gulsary! // Urbana: Slavic Review Press, 1989. – Vol. 4, № 24. – P. 34-42; Soucek S. National Color and Bilingualism in the

Chingiz Aytmatov asarlari rus adabiyotshunosligida G.Gachev, V.Levchenkov, V.Novikov, A.Gevorkyan<sup>3</sup>, hamda o'zbek adabiyotshunosligida I.G'afurov, A.Rashidov, A.Saidov, S.Karayev, P.Mirza-Ahmedova, Aziz Ibrohim o'g'li<sup>4</sup> kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida sho'ro adabiyoti doirasida yoki alohida olingan asarlar materialida, asosan, g'oyaviy-badiiy nuqtai nazardan o'rganilgan. Ammo, keyingi davr adabiyotshunosligida, xususan, milliy adabiyotshunosligimizda ham, muallifning badiiy asarlari tili va badiiy tasvir vositalari, jumladan, odorokolofonik ma'no ifodalovchi birliklarni qo'llash mahorati va ularning tarjimada saqlanishi, bu masalaga xorijiy, xususan, inglizabon adabiyotshunoslarining munosabati masalalari, ayrim maqolalarni inobatga olmagan, munaqqidlar tomonidan deyarli qiyosiy planda o'rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining "Til, adabiyot, tarjima va madaniy merosning xalqaro kommunikativ darajasini oshirish tadqiqi" istiqbolli ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Chingiz Aytmatov asarlarining umumbashariy ahamiyatini va ommaviylikini ta'minlovchi badiiy tilining o'ziga xosliklarini, xususan, odorokolofonik tushunchalarni ifodalovchi birliklarning qo'llanishi va yozuvchining rus tilidagi nasriy asarlari matni va ularning o'zbek tiliga tarjimalari misolida idrok etilishini qiyosiy tahlil asosida o'rganish, ularning badiiy-estetik tafakkur takomilidagi o'rnini belgilashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Chingiz Aytmatov asarlarida odorokolofonik ma'no va tushunchalarni ifodalovchi til birliklari zamonaviy adabiyotshunoslikda konseptual, postkolonial, kognitiv, antropotsentrik, lingvopoetik hamda sensor poetikaga asoslangan

---

Work of Chingiz Aitmatov // Journal of Turkish Studies. – Wisconsin, 1983. – Vol. 5. – P. 70-98; Avins C.J. The Failure of Perestroika in Aitmatov's "The Executioner's Block". – Chicago: Butterworth-Heinemann, 1988. – <https://philology-journal.ru/en/issue/phil.2018>. – P. 8-10; Shneidman N. Chingiz Aitmatov: Myth and Reality. Toronto: University of Toronto Press, 1979. – 128 p.; Shneidman N. Russian Literature. 1988-1994. The End of an Era. – Toronto: University of Toronto Press, 1995. – 258 p.

<sup>3</sup> Гачев Г. Любовь. Человек. Эпоха. Рассуждение о повести "Джамиля" Чингиза Айтматова. – Москва: Советский писатель, 1965. – 97 с.; Гачев Г. Ч.Айтматов: очерк творчества. – Москва: ХЛ, 1989. – 121 с.; Гачев Г. Чингиз Айтматов и мировая литература. – Фрунзе: Кыргызстан, 1982. – 284 с.; Геворкян А.С. Повести Ч.Айтматова. Земная правда романтики. –Самарканд, 1990. Ч.1. – 148 с.; Левченков В. Чингиз Айтматов: проблемы поэтики, жанра, стиля. – Москва: СП, 1983. – 231 с.; Новиков В. Художественный поиск (О стиле своем своеобразии повестей Ч.Айтматова "После сказки" ("Белый пароход"), "Ранние журавли", "Пегий пес, бегущий краем моря") // Движение истории – движение литературы (наследие и стилевое богатство современной советской литературы). – Москва: СП. – 1982. – С. 546-575.

<sup>4</sup> G'afurov I. Asil muallim – tarjimon va tadqiqotchi // Rashidov A. "Chingiz Aytmatov olami" kitobiga kirish so'z. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – B. 5-7; G'afurov I. Eski va yangi rivoyatlar // Чингиз Айтматов навечно в сердцах узбекистанцев (Книга воспоминаний). – Toshkent: NOSHIR, 2008. – B. 14-23; Rashidov A. "Oq kema"ning oydin yo'li // An'ana va zamonaviylik: Ilmiy to'plam. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – B. 137-143; Rashidov A. Chingiz Aytmatov olami. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – 144 b; Saidov A. Чингиз Айтматов - гениальнейший писатель современности // Новости Узбекистана, декабрь 2008 (издание не установлено; цит. по: [http://www.novostiuzbekistana.st.uz/51\\_437/pa.htm](http://www.novostiuzbekistana.st.uz/51_437/pa.htm); Караев С. Об узбекском и киргизском переводах // Чингиз Айтматов навечно в сердцах узбекистанцев. – Ташкент: NOSHIR, 2008. – С. 97-99; Мирза-Ахмедова П. Восхождение к себе // Ковчег Чингиза Айтматова. – Москва: Воскресенье, 2004. – С. 236-249; Мирза-Ахмедова П. Национальная эпическая традиция в творчестве Чингиза Айтматова. – Ташкент: Фан, 1980. – 178 с.; Aziz Ibrohim o'g'li. Lui Aragon sevgisi ("Jamila" qissasini o'qib...) // "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 2007-yil 26-yanvar;

transmadaniy nazariy yondashuvlar shakllanishining yorqin namunasi sifatida dalillash;

Chingiz Aytmatovning ilk hikoyalari poetikasida odorokolofonik ma'no va tushunchalar ramziyligining badiiy-estetik hamda badiiy-falsafiy vazifalarini ochib berish hamda yozuvchi hikoyalarida ushbu birliklarning badiiy matnda qo'llanishidagi funksional, semantik-ramziy va kontekstual integratsiya qonuniyatlarini, shuningdek, bu orqali badiiy-estetik, struktur-funksional jihatlarini aniqlash;

Chingiz Aytmatovning "Yuzma-yuz", "Jamila", "Alvido, Gulsari!", "Oq kema", "Qiyomat" hamda boshqa roman va qissalarida odorokoloristik motivlarning poetikasi, ularning ramziy falsafasi, badiiy matndagi o'rni, idrok etilishi, roli va ahamiyatini tarjima matnlari asosida o'rganish hamda asarlarning umumbashariy shuhrat qozonishidagi rolini isbotlash;

Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbekcha tarjimasida original matniga xos odorizmlarni, koloristik va fonologik ma'no hamda tushunchalarni ifodalovchi birliklar falsafasining idrok etilishi va qayta yaratilishidagi adekvat tarjimani amalga oshirishdagi yutuqlar hamda muallifning o'ziga xos badiiy uslubini saqlashdagi kamchiliklarni ko'rsatib berish natijasida tarjimashunoslikka oid tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Chingiz Aytmatovning "Alvido, Gulsari", "Gazetachi Dzyuyo", "Ashim", "To'g'onchi", "Baydamtal sohillarida", "Qizil olma" hikoyalari, "Yuzma-yuz", "Jamila", "Oq kema" qissalari va "Qiyomat" romani kabi nasriy asarlarining rus tilidagi matnlari va ularning o'zbek tiliga tarjimalari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Chingiz Aytmatov rus tilidagi asarlari matnlarining tiliga xos odorokolofonik birliklar poetikasi va ularning tarjimada idrok etilishi, qayta yaratilishi tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida tavsifiy, adabiy-tarixiy, poetik-struktur, lingvopoetik, qiyosiy-adabiy hamda madaniyatlararo qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Chingiz Aytmatov asarlarida odorokolofonik ma'no va tushunchalarni ifodalovchi til birliklari zamonaviy adabiyotshunoslikda konseptual, postkolonial, kognitiv, antropotsentrik, lingvopoetik hamda sensor poetikaga asoslangan transmadaniy nazariy yondashuvlar shakllanishining yorqin namunasi sifatida dalillangan;

Chingiz Aytmatovning ilk hikoyalari poetikasida odorokolofonik ma'no va tushunchalar ramziyligining badiiy-estetik hamda badiiy-falsafiy vazifalari ochib berilgan hamda yozuvchi hikoyalarida ushbu birliklarning badiiy matnda qo'llanishidagi funksional, semantik-ramziy va kontekstual integratsiya qonuniyatlari, shuningdek, bu orqali badiiy-estetik, struktur-funksional jihatlarini aniqlangan;

Chingiz Aytmatovning "Yuzma-yuz", "Jamila", "Alvido, Gulsari!", "Oq kema", "Qiyomat" hamda boshqa roman va qissalarida odorokoloristik motivlarning poetikasi, ularning ramziy falsafasi, badiiy matndagi o'rni, idrok etilishi, roli va

ahamiyati tarjima matnlari asosida o'rganilgan hamda asarlarning umumbashariy shuhrat qozonishidagi roli isbotlangan;

Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbekcha tarjimasida original matniga xos odorizmlarni, koloristik va fonologik ma'no hamda tushunchalarni ifodalovchi birliklar falsafasining idrok etilishi va qayta yaratilishidagi adekvat tarjimani amalga oshirishdagi yutuqlar hamda muallifning o'ziga xos badiiy uslubini saqlashdagi kamchiliklarni ko'rsatib berish natijasida tarjimashunoslikka oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilar bilan belgilanadi:

Chingiz Aytmatov asarlari misolida odorokolofonik ma'no va tushunchalarni ifodalovchi til birliklarining zamonaviy adabiyotshunoslikning o'rganish obyekti sifatida dolzarb va o'rganilishi zarur masalalardan ekanligi milliy va xalqaro tajribalar misolida ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan o'rganilgan. Chingiz Aytmatov ijodining o'tgan asrning so'nggi choragida inglizabon adabiyotshunosligida o'rganilishi va idrok etilishi zamonaviy adabiyotshunoslikda yangicha yondashuvlar namunasi ekanligi dalillangan. Yozuvchi ijodining ilk bosqichida yaratilgan hikoyalari poetikasida rang va tovushlarning badiiy-estetik hamda badiiy-falsafiy vazifalari qiyosiy planda tadqiq qilingan. Yozuvchi ijodining ikkinchi yarmida yaratilgan qissalarida odorokolofonik lisoniy birliklarning badiiy matnidagi struktur-funksional vazifalari original va tarjima matnlar misolida tasniflangan.

Chingiz Aytmatovning katta epik janrlarga mansub ("Yuzma-yuz", "Jamila", "Alvido, Gulsari!", "Oq kema", "Qiyomat" kabi) rus tilidagi asarlarida odorokoloristik motivlar poetikasi, badiiy matndagi o'rni, idrok etilishi, roli va ahamiyati qiyosiy tahlil qilingan. Yozuvchi asarlarining o'zbek tiliga tarjimasida asliyat matniga xos odorizmlar, koloristik va fonologik ma'no hamda tushunchalarni ifodalovchi birliklarning idrok etilishi va tarjimada qayta yaratilishidagi yutuq hamda kamchiliklar ko'rsatib berilgan, ularning qiyosiy tahlili amalga oshirilgan hamda tarjimashunoslikka oid tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi** muammoning aniq qo'yilishi, chiqarilgan xulosalarning qat'iyiligi, qo'llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma'lumotlarning ishonchli manbalardan olinganligi, tahlilga tortilgan, badiiy va rasmiy materiallarning asosiligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining nazariy ahamiyati yurtimiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida jahon adabiyotini o'qitish bo'yicha metodikalarni takomillashtirishda hamda yangi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish uchun istiqbolli mavzularni belgilashda, shuningdek, tahlil va xulosalar asosida olingan natijalardan boshqa xalqlar adabiyoti materiali va matnlarining tadqiqida ham foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Nazariy ma'lumotlar qiyosiy adabiyotshunoslik, chet el adabiyoti, badiiy adabiyot o'qitish metodikasi, tipologiyasi, pragmatik adabiyotshunoslik sohalari va matnni o'rganish bo'yicha manbalarni boyitadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular oliy ta'lim tizimida "Qiyosiy adabiyotshunoslik", "Tili o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti",

“Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanlaridan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda, adabiyotshunoslikka kirish, badiiy matn poetikasi, madaniyatshunoslik, lingvopoetika bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda, dissertatsiyalar va ilmiy maqolalar yozishda, maktab ta’limi sifatini oshirishda hamda oliy ta’limda soha mutaxassislarining nazariy hamda amaliy bilim va ko‘nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Chingiz Aytmatov ijodida odorokolofonik birliklar poetikasi, rus tilidagi asarlari va ularning o‘zbekcha tarjimalarini qiyoslash va idrok etilishi masalasini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

Chingiz Aytmatov asarlarida odorokolofonik ma’no va tushunchalarni ifodalovchi til birliklari zamonaviy adabiyotshunoslikda konseptual, postkolonial, kognitiv, antropotsentrik, lingvopoetik hamda sensor poetikaga asoslangan transmadaniy nazariy yondashuvlar shakllanishining yorqin namunasi sifatida dalillangan natijalaridan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” nomli grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 19-iyundagi 1244/02-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘qitish bo‘yicha metodikalarning takomillashuviga erishilgan;

Chingiz Aytmatovning ilk hikoyalari poetikasida odorokolofonik ma’no va tushunchalar ramziyligining badiiy-estetik hamda badiiy-falsafiy vazifalari ochib berilishiga hamda yozuvchi hikoyalarida ushbu birliklarning badiiy matnda qo‘llanishidagi funksional, semantik-ramziy va kontekstual integratsiya qonuniyatlari aniqlanishiga doir xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo‘ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 19-iyundagi 1243/02-son ma’lumotnomasi). Natijada oliy ta’lim tizimida “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti”, “Adabiyot o‘qitish metodikasi” fanlaridan darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari yaratishda, “Adabiyotshunoslikka kirish”, “Badiiy matn poetikasi”, “Madaniyatshunoslik”, “Lingvopoetika” bo‘yicha maxsus kurslarni o‘qitishda zamonaviy talablarga mos lingvopoetik ta’minot boyitilgan;

Chingiz Aytmatovning “Yuzma-yuz”, “Jamila”, “Alvido, Gulsari!”, “Oq kema”, “Qiyomat” hamda boshqa roman va qissalarida odorokoloristik motivlarning poetikasi, ularning ramziy falsafasi, badiiy matndagi o‘rni, idrok etilishi, roli va ahamiyati tarjima matnlari asosida o‘rganilganiga hamda asarlarning umumbashariy shuhrat qozonishidagi rolini isbotlashga oid ilmiy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSh elchixonasi hamda Xalqaro ta’lim bo‘yicha Amerika Kengashi bilan hamkorlikda AQSh davlat departamenti tomonidan moliyalashtiriladigan “English Access Microscholarship Program” loyihasi

doirasida institutning o‘quv jarayoni, kurs va seminarlar tashkil etilishi, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda xalqaro hamkorlik loyihalarini amalga oshirishda keng ko‘lamda va samarali tarzda qo‘llanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 19-iyundagi 1242/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada oliy ta‘lim tizimida “Qiyosiy adabiyotshunoslik”, “Chet el adabiyoti”, “Matn poetikasi”, “Tarjima nazariyasi va amaliyoti”, “Badiiy adabiyot o‘qitish metodikasi va tipologiyasi”, “Pragmatik adabiyotshunoslik” fanlarining tahliliy materiallari va manbalari bazasi boyitilishiga erishilgan;

Chingiz Aytmatov asarlarining o‘zbekcha tarjimasida original matniga xos odorizmlarni, koloristik va fonologik ma‘no hamda tushunchalarni ifodalovchi birliklar falsafasining idrok etilishi va qayta yaratilishidagi adekvat tarjimani amalga oshirishdagi yutuqlar hamda muallifning o‘ziga xos badiiy uslubini saqlashdagi kamchiliklarni ko‘rsatib berish natijasida tarjimashunoslikka oid ishlab chiqilgan tavsiyalardan Samarqand viloyat radiosida 2024-yil may oyi davomida efirga uzatilgan “Fayzli oqshom” eshittirishining navbatdagi sonlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 28-iyundagi 01-07/170-son ma‘lumotnomasi). Natijada eshittirishlar ssenariysining takomillashuviga, dasturning ilmiy va ilmiy-ommabop materiallar bilan boyitilishiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Ushbu tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy-amaliy konferensiyada, jumladan, 5 ta xalqaro, 2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy-amaliy anjumanida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy maqola chop etilgan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 7 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 130 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari belgilangan, obykti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Odorokolofonik birliklarning ilmiy-nazariy tadqiqi va ularning Chingiz Aytmatov asarlaridagi o‘rni**” deb nomlangan. Bu bobda odorokolofonik birliklar adabiyotshunoslikning o‘rganish obykti sifatida: ilmiy-metodologik asoslar, milliy va xalqaro tajriba masalalari, shuningdek, Chingiz

Aytmatov ijodi XX asr so‘nggi choragida inglizabon adabiyotshunosligi nigohida: talqin, tadqiq va munosabat bilan bog‘liq izlanishlar xususida ma‘lumot keltirilgan.

Bobning (1.1.) birinchi paragrafi *“Odorokolofonik birliklar adabiyotshunoslikning o‘rganish obyekti sifatida: ilmiy-metodologik asoslar, milliy va xalqaro tajriba”* deb nomlangan bo‘lib, bunda zamonaviy filologiyada yaxlitlik xususiyatiga ega badiiy matnga, ayniqsa, uni poetika nuqtai nazaridan o‘rganishga ehtiyoj sezilarli darajada ortib borayotgani, shu bois badiiy matnni tahlil qilishga qiziqish nihoyatda katta ekani, matnning poetik jihatdan ham ko‘p qirrali, matn tom ma‘noda filologiya va insonning kognitiv olami bilan bog‘liq masalalarga qiziquvchi boshqa sohalarda ham asosiy tadqiqot obyektiga aylangani yoritilgan. Chunki, matn insonning faqat nutqiy faoliyati mahsuli bo‘lib qolmasdan, u insonning aqliy, ruhiy, ijodiy, nutqiy faoliyatlarining kesishuv nuqtasida majmuaviy xarakter kasb etgan holda shakllanadi. Poetik tahlilning zamonaviy yo‘nalishlari, badiiy matnning mikro detallari, xususan, odorokolofonik birliklar tahliliga nisbatan qarashlar hanz shakllanish bosqichida bo‘lib, ular fanlararo, ayniqsa, poetik-struktur, pragmatik va kognitiv adabiyotshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun dolzarbdir.

Shu bois ham, tadqiqotimizning ilk sahifalaridayoq badiiy matn shakllanishining asosiy nazariy unsurlari tavsifiga to‘xtaldik. Ishimizning maqsadi va vazifasidan kelib chiqilsa, odorokolofonik – hid, rang-tus va tovushlarni ifodalovchi birliklarni, ularning poetikasini, muayyan asar matnidagi madaniy makro va mikromuhitning bir qismi sifatida ma‘no hosil qilishini o‘rganish zarurat ekanini taqozo etadi. Masalan, Chingiz Aytmatovning qirg‘iz xalqining ming yillik mentalitetini o‘z asarlarida aks ettirishi uchun qirg‘izlar qo‘llaydigan rang-tus, hid, tovush – ovozlarning palitrasini ifodalovchi vositalardan foydalanishi, ularning birlamchi lug‘aviy ma‘nosi ustiga yuklanadigan chuqur va keng falsafiy mazmunini bilishimiz, o‘rganishimiz hamda bu orqali maqsad va muddaoni kitobxon idroki va ongiga singdirish zarurati yuzaga keladi. Bundan tashqari, odorizm, koloristika va fonologik birliklar Chingiz Aytmatov asarlarining umumbashariy ahamiyatini, nufuzini ta‘minlashga qo‘shgan hissasini, janr shakllantiruvchanlik, xarakter yaratuvchanlik, g‘oya ifodalash va uni yoritishga xizmat qilish kabi qator funksional-struktur xususiyatlarini ifodalashni ta‘minlash ehtiyoji ham bu boradagi qarashlarning muhimligini yuzaga chiqarmoqda. Shunday ekan, odorokolofonik birliklar tadqiqi jahon adabiyotshunosligida shu kunga qadar ham mutaxassislarining e‘tiborini ma‘lum darajada o‘ziga jalb etib kelgan va ular ma‘lum bir tadqiqotlar uchun o‘rganish obyekti maqomida bo‘lgan. Biroq, adabiyotshunoslikda, xususan, qiyosiy adabiyotshunoslikda o‘zbek milliy adabiyotiga katta ta‘sir ko‘rsatgan, alohida uslubi va badiiy ifoda tiliga hamda vositalariga ega ijodkor – Chingiz Aytmatovning so‘z qo‘llash borasidagi badiiy mahoratining o‘ziga xos jihatlarining tadrijiy taraqqiyoti va badiiy poetikasini o‘rganishga bag‘ishlangan monografik plandagi ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Hozirga qadar badiiy tili, so‘z qo‘llash mahorati va asarlarida tasvirlangan odorokolofonik detallar poetikasi va ularning o‘zbek tiliga tarjimada berilishi, shuningdek, mazkur muammoga inglizabon adabiyotshunosligining munosabati deyarli o‘rganilmagan. Chingiz Aytmatov asarlarini tadrijiy planda, asarlarining o‘zbek tiliga tarjima matnlarini keng jalb

etgan holda, qiyosiy o'rganish adabiyotshunoslar e'tiboridan nisbatan chetda qolmoqda va bunga o'xshash tadqiqotlar juda kam amalga oshirilgan.

Chingiz Aytmatov asarlarining uslubi, xalqona manbalari, ijodiy o'ziga xosliklari to'g'risida mamlakatimizda mustaqillik yillarida qator yirik tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lsa-da, uning asarlarida odorizm, koloristik, fonologik tushunchalarga asoslanuvchi birliklarning poetikasi, ularning asarlar badiiyatidagi vazifasi va badiiy-estetik roli, mazkur masalaga jahon adabiyotshunosligining, xususan, ingliz adabiyotshunosligining o'tgan asrning oxirlaridagi faol munosabati ham, aksariyat adabiyotshunoslar nazaridan chetda qolayotganini qayd etishimiz lozim. Shuningdek, bu detallarning o'zbek tiliga tarjimada berilishi va saqlanishi, yuqorida ta'kidlanganidek, tadqiqotlab masalalardan bo'lib qolmoqda.

Chingiz Aytmatov asarlarida ko'tarilgan tabiat hamda inson, keng va tor ma'nodagi ekologik muammolar orqali uning asarlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani namoyon bo'ladi va, shubhasiz, buni tasvirlashda odorokolofonik detallar alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Chingiz Aytmatov ijodida asarlarining umumbashariy va milliy ahamiyatini, muallif uslubining betakrorligini ta'minlovchi odorokolofonik birliklar poetikasi va ularning o'zbekcha tarjimasi, aslyat matni bilan qiyosi hamda ularning idrok etilishini, XX asr so'ngida inglizzabon adabiyotshunosligida ushbu masalaning tadqiqiga alohida e'tibor bergan holda, tahlil qilish muhim masalalardan ekanligi alohida ko'zga tashlanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz adabiyotshunos olimlarining o'zbek adabiyotida badiiy til masalasi, uning shakli va mazmuni hamda poetikasidagi tub o'zgarishlar munosabati bilan adabiyot tarixi va janrlar tarixiga oid yirik nashrlarining ba'zi sahifalarida e'lon qilingan ayrim maqolalarda odorokolofonik detallar poetikasi to'g'risida ham alohida ijodkorlar yoki ayrim asarlar misolida qisqa munosabatlar bildirilgan. X.Doniyorov, I.G'afurov, Q.Yo'ldoshev, H.Umurov, D.To'rayev, A.Ulug'ov kabilarning kitob va maqolalarida, o'zgarayotgan badiiy tafakkurimiz va madaniy muhit ta'sirida yaratilgan asarlarida masalaga doir ayrim ana shunday ilmiy fikrlar yo'l-yo'lakay bayon etilganligini kuzatamiz <sup>5</sup>. Zero, bunday asarlarda badiiy tilning o'ziga xosliklari va muallifning odorokolofonik ma'no ifodalovchi birliklardan foydalanish mahoratini tadqiq qilish kabilar bosh maqsad qilib olinmaganligi tufayli, bu masalalar batafsil o'rganilmagan.

Birinchi bobning (1.2.) ikkinchi paragrafi "*Chingiz Aytmatov ijodi XX asr so'nggi choragida ingliz adabiyotshunosligi nigohida: talqin, tadqiq va munosabat*" deb nomlangan. Ma'lumki, Chingiz Aytmatov ijodi dunyoning ilg'or fikrli ziyoli insonlarini va olimlarini, jumladan, inglizzabon kitobxonlar hamda adabiyotshunoslarni ham ilk asarlaridanoq ilhomlantirib, qiziqtirib kelgan. Bugungi

---

<sup>5</sup> Qarang: Doniyorov X., Karimov M. Chingiz Aytmatov asarlari o'zbek tilida // "O'zbekiston madaniyati" gazetasi, 1965-yil 21-iyul; G'afurov I. Asil muallim – tarjimon va tadqiqotchi // Rashidov A. "Chingiz Aytmatov olami" kitobiga kirish so'z. – Toshkent: O'qituvchi, 2011. – B. 5-7; G'afurov I. Eski va yangi rivoyatlar // Чингиз Айтматов навечно в сердцах узбекистанцев (Книга воспоминаний). – Toshkent: NOSHIR, 2008. – B. 14-23; To'rayev D. Davr va ijod mas'uliyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 284 b.; Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 263 b.; Umurov H. Tahlil chizgilari. – Toshkent: Muharrir, 2013. – 214 b. Yashin K. Saodat kuychisi // Chingiz Aytmatov. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. – 437 b.; Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 391 b.

kunga qadar ingliz tilidagi ilmiy nashrlarda Chingiz Aytmatov ijodiga doir bir qator esselar, maqolalar, mulohaza va tahlillarni turli manbalarda uchratish mumkin<sup>6</sup>. Bu yozuvchining ijodini tadqiq etishga oid ilmiy asarlar ingliz tilida ko'p mamlakatlarda uchraydi. Inglizadabiyotshunoslarining bunday ilmiy asarlari bugungi kunga qadar o'zbek va rus tillariga yetarlicha tarjima qilinmagani bois, Chingiz Aytmatov ijodining ingliz tilli jamiyatda qabul qilinishi, bu yozuvchini anglash va idrok qilish mavzusini o'rganish milliy adabiyotshunosligimiz uchun yetarli darajada tadqiq etilmagan masalalar qatorida turibdi. AQSh adabiyotshunosligida Chingiz Aytmatov ijodini va asarlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunga qadar yozuvchi ijodi bo'yicha ko'plab doktorlik tadqiqot ishlari himoya qilinib, bir qator ilmiy maqolalar, ikkita yirik monografiya nashr etilgan. Yozuvchining hamma asarlari ingliz tiliga tarjima qilinganligi hamda ba'zi bir AQSh oliy ta'lim muassasalarining o'quv rejalarida yozuvchi ijodiy fa'oliyatini ma'lum darajada qamrab oluvchi mavzulardan foydalanilishi uning ijodiga va uning asarlariga yuqori saviyali ijodiy mahsul sifatida qiziqishning yorqin dalilidir.

Chingiz Aytmatov ijodining ilk bosqichlaridan, ayniqsa, "Alvido, Gulsari!" (1966) qissasi e'lon qilingan paytdan inglizadabiyotshunoslarining madaniy makonda asardagi syujet davomida yuzaga kelgan ijtimoiy ziddiyatlarga, sho'rolarcha hayot tarziga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarga, fojeaviyligiga, tuzum adabiyotshunoslari orasida katta muzokaralarga sabab bo'lgan folklor unsurlarini tahlil etishga diqqat-e'tibor qaratiladi. Ba'zi bir sho'ro tanqidchilari, mutaxassislari asar matnidan davrga xos bo'lgan sotsialistik realizm metodiga muvofiqlik jihatlarini izlashadi va ushbu masala yuzasidan dalillar topishga harakat qilishadi.

Ushbu qissaga doir G'arb madaniyatshunosligida mavjud bo'lgan fikrlarning, qarashlarning shakllanishiga Amerikaning Princeton universiteti professori Svat Soucek tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar turtki bo'lgan. Uning "Chingiz Aytmatov asarlarida milliy kolorit va bilingvizm" nomli maqolasida Chingiz

---

<sup>6</sup> Qarang: Avins C.J. The Failure of Perestroika in Aitmatov's "The Executioner's Block". – Chicago: Butterworth-Heinemann, 1988. – <https://philology-journal.ru/en/issue/phil.2018>. – P. 8-10; Brown D. Soviet Russian Literature since Stalin. L. – Melbourne: Cambridge University Press, 1978. – 404 p.; Clark K. The Mutability of the Canon: Socialist Realism and Chingiz Aitmatov's "I dol'she veka dlitsia den". – Urbana: Slavic Review Press, 1984. – <https://philology-journal.ru/en/issue/phil.2018>. – P. 8-12; Qualin A. Searching for the Self at the Crossroads of Central Asian, Russian and Soviet Cultures: The Question of Identity in the Works of Timur Pulatov and Chingiz Aitmatov. – Seattle: University of Washington Press, 1996. – 246 p.; Shneidman N. Chingiz Aitmatov: Myth and Reality. Toronto: University of Toronto Press, 1979. – 128 p.; Shneidman N. Russian Literature. 1988-1994. The End of an Era. – Toronto: University of Toronto Press, 1995. – 258 p.; Акерман Д. Всеобщая история чувств. – Москва: Колибри, 2018. – 384 с.; Ароматы и запахи в культуре. Изд. 2-е, испр. Книга 1 / Сост. О.Б. Вайнштейн. – Москва: Новое литературное обозрение, 2010. – 616 с.; Бахилина Н.Б. История цветообозначений в русском языке. – Москва: Наука, 1975. – 286 с.; Бобулов К. Трудная переправа (Заметки о творчестве Чингиза Айтматова) // Литература и современность. – Москва: Гослитиздат, 1962. – С. 98-102; Воронов В. Чингиз Айтматов: Очерк творчества. – Москва: Правда, 1986. – 231 с.; Гачев Г. Любовь. Человек. Эпоха. Рассуждение о повести "Джамиля" Чингиза Айтматова. – Москва: Советский писатель, 1965. – 97 с.; Гачев Г. Ч. Айтматов: очерк творчества. – Москва: ХЛ, 1989. – 121 с.; Геворкян А.С. Повести Ч. Айтматова. Земная правда романтики. – Самарканд: 1990. Ч.1. – 148 с.; Левченков В. Чингиз Айтматов: проблемы поэтики, жанра, стиля. – Москва: СП, 1983. – 231 с.; Мирза-Ахмедова П. Восхождение к себе // Ковчег Чингиза Айтматова. – Москва: Воскресенье, 2004. – С. 236-249; Новиков В. Художественный поиск (О стилевом своеобразии повестей Ч. Айтматова "После сказки" ("Белый пароход"), "Ранние журавли", "Пегий пес, бегущий краем моря") // Движение истории – движение литературы (наследие и стилевое богатство современной советской литературы). – Москва: СП. – 1982. – С. 546-575.

Aytmatov ijodi ilk bosqichida yaratilgan “Jamila” qissasidan boshlab “Fudziyamaga chiqish” dramasiga qadar rivojlanish bosqichlari hamda tamoyillari to‘liq o‘rganiladi. Olimning fikricha, Chingiz Aytmatov badiiyatining bunday tez sur‘atda rivojlanishining muhim sabablari va asoslaridan biri uning rus va qirg‘iz xalqining madaniy va adabiy xazinasini qamrab olganligidir. Xususan, bunda uning turkiy xalqlarga mansub eng qadimiy yozma yodgorliklaridan bo‘lmish O‘rxun-Enasoy bitigtoshlari va qirg‘iz xalqining durdonasi hisoblangan “Manas” dostonidan ilhomlanishi katta rol o‘ynaydi.

Asar yakunidagi yosh avlod vakili bo‘lmish Karimbekovning gavdalanishi qalblarda umid chirog‘ini yoqadi. Amerikalik olim S.Souчек bu voqea-hodisalar to‘g‘risida batafsil yozar ekan, hech qanday yaxshi xabar Tanaboyni endi xursand qilolmasligini, keksayib borayotgan Gulsariga o‘tmishidagi mashhur yo‘rg‘asini qaytarib berolmasligini yaxshi biladi. Olim davr va ijod psixologiyasi o‘rtasidagi farqni hisobga olgan holda, shunday xulosalarini keltiradi: “Aytmatov – sho‘rolar davri yozuvchisi. Bunday vaziyatda u mavjud tuzumni tanqid qiluvchi, hukmron mafkuraga zid bo‘lgan asarni qanday qilib yoza oldi?” Olim bu savoliga quyidagicha javob beradi: “Fuqarolik siyosiy darajada u (Aytmatov), hech shubhasiz, o‘z mamlakati siyosiy tizimining ustunlik jihatlari borligiga ishonadi. Badiiy-adabiy darajasida esa, u – yozuvchi hayotni, undagi mavjud bo‘lgan qiyinchiliklari, siyosiy jihatdan ziddiyatlari bilan ko‘rsatib beradi.

E.Kualin asarda shunday dalillarga murojaat qiladi: matnda qirg‘iz milliy madaniyati an‘analarining alohida bir shaxs bilan aloqasi namoyon bo‘ladi. Uning fikricha, “Alvido, Gulsari!” asarida xalq og‘zaki ijodi elementlari – unsurlari Tanaboyning iztiroblarini umumlashtirgan bo‘lib, asarni yaxlit tarzda qirg‘iz madaniyati haqida yig‘i – marsiya sifatida qaramoq joiz. Ko‘plab amerikalik adabiyotshunoslar qatorida E.Kualin ham aksariyat amerikalik adabiy tanqidchilar kabi asar yaratilgan paytdagi sho‘rolar hukumati va jamiyatidagi holatga ko‘p to‘xtaladi. Amerikalik yana bir adabiyotshunos Shiila Daffin Grexem “Chingiz Aytmatovning “Alvido, Gulsari” asari” nomli yirik maqolasida Chingiz Aytmatovni ijodida o‘zining tug‘ilgan joyini tasvirlagan, kuylagan Narayyan, Uilyam Folkner, Tomas Xardi singari chet el klassiklari bilan taqqoslaydi. Shiila Daffin Grexemning ta’kidlashicha, yozuvchining asarlarida tasvirlangan peyzajlar, an‘analar va urf-odatlar, tili – barchasi uni tarbiyalagan ona xalqi – qirg‘izlar hayoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Sh.Grexem Chingiz Aytmatovning bu asarini “o‘z davrining eng yorqin asari” deb atagan G.Gachevning so‘zlarini keltirar ekan, bu sho‘ro olimining matnning “tanqidiy” tahlilidan chekinganligini ko‘rsatib o‘tadi. Bu, amerikalik olimaning fikriga ko‘ra, to‘g‘ri pozitsiya hisoblanadi. Asar mantig‘i, muallif pozitsiyasi inobatga olinsa, uning stalinizm haqidagi bahslarida hamma narsa o‘z holicha qolishi zarur, holbuki milliy ongning ba’zi tomonlaridan ularni o‘chirmoqchi bo‘layotganlar ham uchrab turadi. Gulsari yovuz odamlar tomonidan bichilgan paytiga qadar har taraflama ajoyib jonivor: birinchidan ajoyib tulpor, yo‘rg‘a, ikkinchidan, ulkan qudratga ega adabiy obraz sanaladi. Sh.Grexemning fikriga ko‘ra, kitobxon uni, albatta, L.Tolstoyning Xolstomeri bilan taqqoslab o‘tadi, ammo ularning bir-biridan farqli jihatlari mavjud: L.Tolstoy tasviri bo‘yicha ot obrazi tasviri uslubiy priyom sanaladi; ot qiyofasidagi Xolstomer o‘z nomidan aslida

muallifning boshidan o'tkazgan hayot kechinmalarini hikoya qilish bilan bir qatorda, L.Tolstoyning jamiyat qusurlariga nisbatan fikrlarinigina sharhlaydi. Chingiz Aytmatov tomonidan yaratilgan asarda tasvirlangan ot obrazi esa, bu o'z ajdodlari qoni va vujudidan yaralgan, hayot va zamonasining kompassi – ko'rsatkichi, o'lchov birligi sifatida namoyon bo'ladi. Michigan universiteti professori Deming Braun qissani shunday baholaydi: “Alvido, Gulsari!” qissasi sosrealizmning o'ziga xos asari bo'lib, kolxoz tizimi, stalinizm davrida partiya tomonidan ijtimoiy masalalarning diktatorlarcha, nohaq yechilishini tanqid qiladi, shuningdek, partiya va tizimni asta-sekinlik bilan tozalash taklifini bera olgan”.

Inglizxon kitobxonlarni Chingiz Aytmatov ijodi bilan keng tanishtirish va uning o'ziga xosliklarini o'rganish borasida katta ishni amalga oshirgan yirik adabiyotshunos, kanadalik olim Norman Shnaydman hisoblanadi. N.Shnaydman Chingiz Aytmatov ijodiga dastlab 1979-yilda e'lon qilingan “1970-yillar sho'ro adabiyoti” monografiyasida, so'ngra oradan o'n yil o'tib e'lon qilingan “1980-yillar Sho'ro adabiyoti” monografiyasida yana murojaat qiladi. O'zining “Chingiz Aytmatov: mif va reallik” nomli kitobida olim yozuvchining ijodiy faoliyati va hayoti haqida batafsil hikoya qiladi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, Chingiz Aytmatovni G'arb, xususan, inglizxon adabiyotshunoslikda rus yoki sovet yozuvchisi deb atashadi. Buning sababi, bir tomondan, uning ijodi, aynan, sho'rolar davriga to'g'ri kelganligi bo'lsa, boshqa tomondan uning kelib chiqishi ko'pchilik uchun muhim emasligi, ba'zi hollarda e'tibor berilmasligi bo'lsa kerak. N.Shnaydman esa, ko'pchilikdan farqli o'laroq, uni qirg'iz adibi deb to'g'ri ta'kidlaydi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Chingiz Aytmatov ijodining birinchi yarmiga oid hikoya va qissalarda odorokolofonik birliklar poetikasi”** deb nomlangan bo'lib, bobda Chingiz Aytmatov ijodining ilk bosqichida yaratilgan hikoyalarda rang va tovushlarning badiiy-estetik funksiyasi, Chingiz Aytmatov ijodining ikkinchi bosqichiga oid “Yuzma-yuz” va “Jamila” qissalarida odorokolofonik tasvir: poetik, badiiy-estetik va funksional xususiyatlar o'rganilgan.

Bobning birinchi paragrafi (2.1.) *“Chingiz Aytmatov ijodining ilk bosqichida yaratilgan hikoyalarda rang va tovushlarning badiiy-estetik funksiyasi”*ga bag'ishlangan. Zamonaviy kitobxon tasavvurida Chingiz Aytmatov yirik janrlar – roman va qissalar ustasi sifatida gavdalanadi. Holbuki, u o'z ijodiy faoliyatini yozuvchi-hikoyanavis sifatida boshlagan va bu sohada o'ziga xos qisqa hikoya-novella etalonlarini, namunalarni yaratishda yuksak natijalarga erishgan jahonning buyuk yozuvchilaridan biridir.

Yozuvchining dastlabki hikoyalariga xos xususiyatlarni tasniflasak, avvalo, muallifning kontrastlar – ziddiyatlar, voqealar va xarakterlar o'rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar, qahramonlar tabiatiga xos aksariyat xususiyatlarni ochib bermasdan qo'ymaydigan, e'tiborga molik qarama-qarshiliklarni qayta yaratishga yo'naltirilgan tasvirlarga berilishi haqida gapirish kerak.

Odorokolofonik birliklarning badiiy matndagi ahamiyatini, ularning tasvirlanishini o'rganar ekanmiz, biz yuqorida taklif etgan mantiqiy tartibga, asarlarning yaratilish davri, xronologik ketma-ketligiga qarash bilan birga, ularning

janr xususiyatlarini inobatga olib tahlil qilishga harakat qilamiz. Zero, bu yozuvchi ijodiy tamaddunini kuzatish imkonini beradi.

1952-1956-yillar mobaynida Qirg'izistonning davriy matbuoti sahifalarida Chingiz Aytmatovning ilk hikoyalari ketma-ket chop etila boshladi: "Gazetachi Dzyuyo" (1952, "Qirg'iziston komsomoli"), "Ashim" (1952, "Qirg'iziston"), "Biz olg'a boramiz" (1952, "Qirg'iziston komsomoli"), "To'g'onchi" (1953, "Qirg'iziston"), "Ha borape" ("Sovet Qirg'izistoni"). Eng birinchi hikoyalarda milliy koloritning yorqin namoyon bo'lishi kuzatiladi. Bundan tashqari, Chingiz Aytmatovning adabiy debyuti, ijodining ibtidosi bevosita milliy mavzu bilan emas, balki uzoq Yaponiyaning maishiy turmushi, madaniyati, urf-odatlar bilan bog'liq. Buning sababi milliy mavzuda muvaffaqiyatli asar yarata olishiga ishonmaslikmi yoki bo'lajak yozuvchining jurnalist sifatida o'zi qiziqqan yaponshunoslik mavzusida jamlanib qolgan materiallarni o'ziga xos ko'rsatilishimi, endi sirligicha qoladi. Faqatgina bu material muvaffaqiyatli tarzda ro'yobga chiqqanligi, ommalashganligi va uning markazida ijodkor, jurnalist obrazi turganligi bilan e'tiborga molik.

Chingiz Aytmatovning ilk hikoyalarda turli darajada, keyingi yetuk asarlariga xos bo'lgan aksariyat jihatlar e'tiborni tortadi. Ular hali juda ham ishonarli darajada tasvirlanmas-da, lekin ushbu fazilatlarining dastlabki hikoyalarda mavjudligini inkor etib bo'lmaydi: keskin dramatik kolliziyalar, atrof-muhitni poetik idrok etish, anglash, emotsional holatlarning kontrastligi – qarama-qarshiliklarga boyligi.

Alber Shveytser, nemis san'atshunosi, Iogann Sebastyan Bax to'g'risidagi monografiyasida o'ta qiziqarli kuzatishlarini bayon qiladi: daho nemis kompozitorining partituralari uning o'rtamiyona zamondosh hamkasblaridan hech narsasi bilan farqlanmas ekan, biroq me'yor hissining biroz ko'proq ekanligi, his-tuyg'uning sal ko'proq, erkinroq namoyon bo'lishi Bax ijodini haqiqiy yangilikka aylantiradi, chunki ularda san'at sohasida juda keng tarqalgan banallik – g'alizlik chegarasi yorib o'tilgan, bartaraf qilingan. Chingiz Aytmatov hikoyalari bilan ham xuddi shu holat sodir bo'ladi, ular ham qirg'iz adabiyotida ko'p uchraydigan tengdoshlarining yozganlaridan deyarli farqlanmas edi. Bu sezilar-sezilmas "deyarli"ni hamkasb ijodkorlardan eng teran, ziyraklarigina sezishardi.

Bobning ikkinchi paragrafi (2.2.) "*Chingiz Aytmatov ijodining ikkinchi bosqichiga oid "Yuzma-yuz" va "Jamila" qissalarida odorokolofonik tasvir: poetik, badiiy-estetik va funksional xususiyatlar*"ga bag'ishlangan.

"Yuzma-yuz" qissasi Chingiz Aytmatovning ijodiy kamolotida muhim bosqich hisoblanadi. Bu asar yaratilishi davriga kelib, yozuvchi mahoratli ijodkor bo'lib yetishgan edi. Shu sababli endi qissada psixologik tasvir aniqligi, keng tarmoqli syujet liniyalari yaqqol va tugal kuzatiladi. Asarda qirg'iz ovulining suronli urush yillaridagi og'ir turmushi keskin tund ranglarda tasvirlanadi, bu yerda urushning barcha og'ir kulfatlari ko'rsatiladi: ayollarning daladagi iztirobli mehnati, och-nahor go'daklarning miltiragan ko'zlari, selsovetga kelgan mash'um qora xat varaqlari. Yosh qirg'iz ayoli Saidaning fojeasi – u dezertir – qochoq va qotilning xotini bo'lib chiqadi – ovul hayotining keng ifodali fonida tasvirlanadi.

Muallif muayyan paytda qahramonni o'rab turgan narsalarni tasvirlaydi: "*Poezddan biron kimsa tushmadi. «Bu qaysi stansiya?» deb hech kim qichqirib*

*so‘ramadi ham: horib kelgan butun eshelon shirin uyquda... Bir ozdan so‘ng vagondan pinhona ajralgan bir kishi yugurganicha ariq bo‘yidagi bo‘talar orasiga engashib borib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi. Hayal o‘tmasdan “Chur-r-r” etgan qattiq hushtak ovozi eshitildi. Miltiqli kishi o‘rnidan tura solib yugurdi-yu, yana shu zahotiyog o‘zini yerga tashladi-da, jim qoldi”. So‘ngra muallif bizga qahramon nazaridan “uzoqdagi” narsalarni tasvirlaydi: “Eshelon ko‘prikdan taq-tuq o‘tib, tunnelga yaqinlashdi. Orqadagi yalt-yult etib turgan qizil chiroqlar ko‘zdan g‘oyib bo‘lganda, parovoz yana damini rostlab, bir oz tinchigan kichkina stansiya bilan xayrlashayotgandek bor kuchi bilan devdek bo‘kirdi. Uning uzoqlarga yangrab ketgan ovozi tog‘ qoyalarigacha yetib bordi-da, hammayoqni larzaga keltirib, teraklarda tunagan zog‘chalarni ham uyqusidan cho‘chitib yubordi. Ovozlar bosilib, bezovtalangan zog‘chalar tinchigandan so‘ng, poezddan tushib butalar orasiga yashirib yotgan kishi suv ostidan chiqqandek entikib-entikib nafas ola boshladi. Eshelon tobora uzoqlashgani sayin g‘ildiraklarning temir yo‘lga taq-tuq etib urilgan ovozlari ham yiroqlashib borardi. Shu kecha teraklarning yaprog‘i to‘kilib chiqdi. Qoratog‘ darasida qorong‘i tun...”*

Dastlab qochish paytida qahramon nimalar his etganligini, muallif odorokolofonik lisoniy birliklar ko‘magida nimalarni tasvirlaginin ko‘rib chiqamiz. Parovoz pechida “otashrang-qizil” olov yaltirardi va vagonlarda odamlar-askarlar uxlashardi. Bu olov alanga olib ketgan urush timsoli, odamlar u yerga tushishlari, uloqtirilishi kerak. Bu tasvirda xarakterli tomon shundaki, Chingiz Aytmatov o‘z uslubiga sodiq qoladi, u urush tafsilotlarini bayon qilmaydi, u urush tasviri arafasida to‘xtaydi. Zero u urushni bolalik chog‘larida boshidan kechirgan. Shu sababli urush uning tasvirida o‘zgacha tus oladi. Go‘yo uning qahramoni mingan poezd g‘ildiraklari g‘ichirlab frontga yetmasdan “to‘xtaydi”, bu odam jangga kirmaydi. U qochib ketadi va bu bilan xalqdan ajralib, axloq va umuminsoniy qadriyatlar chegarasini buzadi. Shu sababli “quloqni teshadigan (qomatga keltiradigan) hushtak”, *tovushli obraz*, uni yerga yiqitadi. Odoristik detallarga matnda izchil ravishda koloristik va fonologik birliklar hamrohlik qiladi. Ular ham asarning badiiy estetikasini ta‘minlashda va kompozitsion tuzilishida muhim vazifa bajaradi. Ranglar palitrasi muhim xarakterologik – tavsiflovchi vazifani o‘taydi. Peyzaj va lirik chekinishlar qatorida uyg‘un berilgan ranglar ko‘pincha u yoki bu qahramon paydo bo‘lishi yoki ularning biror bir harakati sodir qilinishi arafasida beriladi va bu bilan muallifning ularga nisbatan munosabatini belgilaydi.

Yozuvchining “Jamila” qissasi barcha asarlari kabi falsafiy mazmunga ega. Unda muallif estetik va ma‘naviy-axloqiy muammolarni ko‘taradi. Qissa markazida poetik nuqtai nazardan go‘zal tasvirlangan, axloqiy sudga topshirilib, qoralanmagan “noqonuniy muhabbat” tarixi turadi, bu urush nogironga aylantirgan Doniyorning, eri erta-indin harbiy gospitaldan qaytadigan Jamilaga bo‘lgan samimiy muhabbati turadi. Qissadagi asosiy jihat o‘tmish bilan aloqani uzish ham, yosh ayolning atrofdegilar bilan qarama-qarshi kurashi ham emas, balki uning Doniyorga nisbatan muhabbatining tug‘ilishi va tantanasi, ularning bir-birlarini topishidir. Uyidagilarning, ovuldagilarning bu voqeaga nisbatan reaksiyasi kechikkan aks-sado bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri qarshilik ko‘rsata olmaydi.

Jamila uchun oilaviy burch, odat talablari va moddiy farovonlik bilan ichki kurashdan ko'ra, ma'naviy-ruhiy boylikka erishish muhimroq. U va Doniyor o'rtasida nimalar kechganini biz o'spirin Seitning nazari bilan kuzatamiz. O'spirin bolada uyg'onayotgan san'atkorlik – rassomlik talanti go'zallik va tuyg'ular saxovatiga xayrixohlik hissini uyg'otadi. "Jamila", shubhasiz, Chingiz Aytmatovning eng yaxshi qissasi. U bir qarashda sodda tuzilgandek tuyuladi, ammo u juda pishiq o'ylangan va idrok qilingan, g'oyaviy jihatdan o'ta murakkab. Lui Aragonning ta'kidlashicha, "Hikoya hayratomuz tarzda ravon kechadi, eng yangi adabiyotga, aynan, shu narsa yetishmaydi". Yozuvchi bunga rus mumtoz adabiyotini va u orqali G'arb mumtoz adabiyotini o'rganish vositasida erishadi, "ammo san'atkor mo'yqalami milliy olamni ushlab olgan".

E'tiborga molik tomoni shundaki, "Jamila" qissasi dastlab, "Obon", ya'ni "Ohang" – "Melodiya" deb nomlangan bo'lgan. Ko'rinadiki, bizni qiziqtirayotgan fonologik detal dastlab asarning nomidayoq kuzatilgan. Nazarimizda, xuddi V.Levchenko ta'kidlaganidek, dastlabki sarlavha asar mohiyatini to'laqonliroq ifodalagan bo'lardi. Yozuvchining ta'kidlashicha, asarni "Jamila" deb u ilk marta e'lon qilingan "Новый мир" jurnali bosh muharriri A.Tvordovskiy nomlagan.

Chingiz Aytmatov ijodida qaysidir darajada peyzaj tasviri orqali jaranglayotgan musiqani o'z qahramonlari kechinmalari vositasida o'quvchiga yetkazish imkoni paydo bo'ladi. Kitobxon ulkan so'z san'atkori mahorati orqali bu musiqani idrok etadi hamda Doniyorning qo'shig'ini deyarli jismonan his qiladi. Yozuvchi bu so'zsiz qo'shiq edi, deb ta'kidlaydi va qo'shiqdan ko'p so'z keltirmaydi, buning o'rniga u peyzaj chizadi va unda *ko'plab bo'yoq va ranglardan foydalanadi, hid-ifor bilan to'yintiradi*.

Matnda eng ko'p takrorlanadigan ranglar cho'lning bahoriy tabiatiga xosdir: *yashil, moviy, olov rang, ko'k, qora, oq*. Yozuvchi ulardan qay birini qo'llamasin, tiriklikni, yorqin hayotni ulug'laydi. Hatto *baqiroq, g'am ramzi bo'lgan qora, sovuq rang* ham kontekstga bog'liq tarzda ikki xil vazifa bajaradi, kulfat ifodasi bo'lgan bu tus fonida harakat uchun fursat tug'iladi.

"Jamila" qissasida *rang, hid va tovushlarni* ifodalovchi birliklarning qo'llanilishi favqulodda mahorat bilan o'ylab amalga oshirilgan, shu sababli bu yozuvchining ijodiy uslubiga xos boshqa badiiy priyomlari orasida o'zining mustahkam o'rniga ega.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **"Oq kema" qissasi hamda "Qiyomat" romanida odorokolofonik motivlar: o'zbekcha tarjima, idrok va qiyosiy tahlil** deb nomlangan. Bobda Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasi va "Qiyomat" romani poetikasida odorokolofonik motivlarning ahamiyati va o'rne, Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbekcha tarjimasida odorizmlar, koloristik va fonologik birliklarning idrok etilishi, qayta yaratilishining muhim masalalari, xulosalar tadqiq qilingan.

Bobning birinchi paragrafi (3.1.) *"Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasi va "Qiyomat" romani poetikasida odorokolofonik motivlarning ahamiyati va o'rne"* deb nomlangan bo'lib, bunda *odorokolofonik motivlarning ahamiyati va o'rne* batafsil o'rganilgan. Ma'lumki, bu borada hatto sarlavhasida ham koloristik unsurdan foydalanilgan "Oq kema" asari alohida e'tiborni tortadi. Ushbu qissa

mavzusi o‘z ichida qamrab olgan badiiy estetik g‘oyasi bilan yozuvchining boshqa ijodiy mahsullaridan keskin farq qiladi, ammo uni muallifning boshqa asarlari bilan bog‘lab turadigan jihatlar ham mavjud. Buning dalili sifatida asarning obrazlari tuzilishiga keng qamrovli yondashuvi, ma‘lum bir voqea va hodisalarni umumahamiyatli darajaga olib chiqishi, asardagi badiiy matnning mazmun-mohiyatini ifodalashda falsafiy yondashish kabi umumiy jihatlarining mavjudligini e‘tiborga olish mumkin.

Yozuvchi Chingiz Aytmatov atrof-muhitni ko‘p qirrali, plastik tasvirlash kerakligiga, “zamonlar aloqasiga” e‘tibor qaratish masalasiga to‘xtala turib, faqat o‘zimizning ajoyib zamonamizni, ishlarimizni, tariximiz va bugungi hayotimizni ko‘rish bilan cheklanmaslik lozimligini ta‘kidlaydi. Adabiyotda qiyalab, bir tomonlama nazar tashlash, nazarimda, o‘z davrini o‘tab bo‘lmoqda, qo‘shimcha yonboshlama va chuqur nazar tashlamoq, o‘tmishni ko‘ra bilmoq zarurati mavjud davr talabi ekanini qayd etadi.

Ayniqsa, “Oq kema” qissasida muallif tomonidan xalq og‘zaki ijodiga murojaat qilinadi, bu esa qissa obrazlarining ifodaviyligini kuchaytirishga ma‘lum darajada turtki bo‘ladi. Ushbu qissadan boshlab Chingiz Aytmatov asarlari poetikasida afsona va rivoyatlar, qo‘shiqlar va xalq matallari o‘ziga xos doimiy badiiy-estetik qatlamni hosil qiladi. Bilvosita ularning ko‘magida inson borlig‘ining muammolari tasvirlanadi, hayot mohiyati mazmuni yoritib beriladi. Bolaning qarashi va idroki vositasida borliqning murakkab vaziyatlarini tasvirlash usuli orqali yozuvchi narsa va hodisalarning ichkarisiga, tub mohiyatiga kirib boradi va ziddiyatlarga o‘zini kutilmaganda namoyon etish imkonini yaratadi. Buning natijasida qissada ezgulik va yovuzlik kuchlari hayratlanarli tarzda murakkab hayotiy tafovutlarga duch keladi.

Asarning ruhi, badiiy g‘oyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lganligi, mos bo‘lganligi sababdan oq rangdan keng foydalanilgan. Qissaning asosiy mohiyati, shubhasiz, bolaning o‘y-xayollari va orzulari, istaklari asosiga qurilgan desak bo‘ladi. Shu sababdan, bolaning baxt, yaxshilik, adolatga ishonchi va umidi birinchi planda turadi. Uning bu orzusini *oq kema* va *oppoq Shoxdor ona bug‘u* o‘zida mujassamlashtirgan. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib, shuni ta‘kidlash joizki, asarda *dominant rang oq rang* bo‘lib, u bilan barcha *go‘zal, ezgu va e‘tiborga molik narsalar* chambarchas bog‘lanadi.

Muallif o‘z nomidan qissani hikoya qilib berayotganda, ranglar palitrasining turlicha tonlari qo‘llaniladi (masalan, turli ranglardagi tepachalar; qo‘ng‘ir ot, ko‘karib ketgan suv, yorqin moviy, nastarin tus, malla tosh, kulrang tosh va boshqalar), bolaning o‘zi hikoyani olib borayotganida esa, oq rang gammasining boshqa ranglarga nisbatan ustuvorligi kuzatiladi: oq kema Issiqko‘ldan suzib o‘tadi, u gulxan yorug‘ida cho‘pon bolalari bilan o‘ynaydi, uning nazarida buyuk tog‘lar derazadan taralayotgan nurga jamlanadi; qirg‘iz qabilasining oq motam bayrog‘i yerga egiladi, oq Shoxdor ona bug‘u o‘z bolalarini odamlar va yirtqichlardan uzoqroqqa olib ketadi, u oq qayindan beshik keltirib beradi; bug‘u avlodlari o‘z ajdodlari qabrlariga oq maral shoxidan yodgorlik qo‘yishadi. Hech shubhasizki, oq rang bu yerda o‘zining birlamchi ma‘nosida emas, balki ko‘chma ma‘noda, *adolat, soflik, abadiyat* va *ezgulik ramzi* sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu qissadagi falsafiy va axloqiy kategoriyalar muallif tomonidan birgina oq epitetni o‘zida

mujassamlashtirishi bejiz emas. Yuqorida ta'kidlanganidek, boshqa asarlarga nisbatan turlicha koloristik palitrage ega ushbu qissa matnida oq rang foydalanilishiga ko'ra yetarlicha barqarorlikka ega. Quyidagi parchada esa *sariq rang* o'ziga xos ramziylik kasb etgan: – *Xo'p, sen aytganicha bo'la qolsin, sen mezbon, men mehmon, – ko'na qoldi azamat Ko'katoy, iljayarkan yo'g'on sariq tishlarini ko'rsatib.*

Qissa matnida *epitet – sariq rang* qo'llanganligining ma'lum bir o'ziga xos jihati mavjud. Bunda *sariq* rangdan o'z birlamchi ma'nosida, *yirtqichning o'tkir tishlarini tasvirlashda* foydalanilgan. Ammo shu bilan birga, asarda *sariq rang* “*kulfat, g'am-tashvish tashrifi*” ramziy ma'nosida ham kelgan. Turkiy xalqlar leksikasiga xos bo'lgan “sariq qadam” iborasi ham shunday ma'noni o'zida mujassam etadi. Asar kulminatsiyasida, aynan, Ko'katoy obrazi poyqadami xush kelmagan, halokat olib keluvchi obraz sifatida anglashiladi. Ushbu g'oya Seydahmadning qo'shig'i bilan yanada mustahkamlanadi:

“*Sariq-sariq tog'lardan, Sariq otda men keldim.*

Och eshiging, ey, *sariq savdogar, biz ichamiz sariq vinodan.*

*Qo'ng'ir-qo'ng'ir tog'lardan, qo'ng'ir otda men keldim.*

Och eshiging, ey, *qo'ng'ir savdogar, biz ichamiz qo'ng'ir vinodan...*”

Shunday qilib, rang-tasvir uyg'unlikda asar badiiy g'oyasi bilan uzviy birikkan holda, qissada struktura tashkillashtiruvchi muhim bir unsurga aylanadi.

Qissada odorizmlar, yoqimli va yoqimsiz hidlar unchalik ko'p emas. Ularning qo'llanilishi matnda, asosan, emotsional-hissiy ta'sirchanlik bo'yog'iga ega bo'lib, baholovchilik vazifasini bajaradi. Odorizmlarning roli adibning “Qiyomat” (1986) romanida (o'zbek tilida dastlabki nomi “Kunda”, tarjimon I.G'afurov) tubdan o'zgarib, juda katta ahamiyat kasb etadi.

Chingiz Aytmatov ijodining yakunlovchi to'rtinchi bosqichida yaratilgan “Qiyomat” romani matnida odorizm yanada yuqoriroq badiiy bosqichga yuksaladi. Aynan ushbu asarda hidlar yozuvchining qolgan barcha asarlaridan ko'ra ko'proq vazifa bajaradi. Shu sababli adib asarlari poetikasida odorokolofonik birliklar poetikasini, ayniqsa, odorizmlarni o'rganish uchun mazkur asarga batafsil to'xtalamiz.

Romanning bosh ijtimoiy-falsafiy muammosi – bu ekologiya masalasidir. Muallif nuqtai nazaridan qaralsa, asarda ekologiya, ekologik muammo tushunchalari bir necha ma'noda iste'mol qilinganini ko'ramiz. Birlamchi, o'z ma'nosida, uy, turarjoy, Zamin ona uyimiz ma'nosini ifodalaydi, badiiy matn estetikasi nuqtayi nazaridan “bu uyda hamma narsa o'z o'rnida emas. Bunga jim qarab turish mumkin emas, zero, bu bizga tegishli, xuddi uyimizda yong'in bo'lgani kabi”, – deb takidlaydi muallif qahramonlarining birining tilidan. Bu metaforali-ramziy yong'in nafaqat “uy-joy”ni kuydiradi, balki tabiatning kulini ko'kka sovurib, uning gultoiji bo'lgan insonni ham poymol qiladi. Borliqda neki tirik jon, materiya bo'lsa, ular bilan jangga ramziy “yovuzlik materiyasi” kirishadi. Bu yovuzlik materiyasining katta qismini o'ziga xos *ijtimoiy toksin – zahar-narkotik* tashkil etadi. Uning halokatli ta'siriga barcha odamlar qatori yoshlar ham tushib qoladi. *Ijtimoiy toksin – narkotik*, o'ziga xos *keskin va o'tkir hidiga ega* “aqlan ozdiruvchi” *bangidevona, nasha*, bizning filologik tadqiqotimiz predmeti – odoristik detal nuqtayi nazaridan

o'ta funksional, samarali vazifa bajaradi. Romandagi odorizm ifodalovchi birliklar xuddi shunday muhim emotsional-baholash, tavsiflash, tarkib shakllantirish kabi vazifalarni bajaradi. Asarda flora va faunaning serqirra hidlari olami bilan bir qatorda, odamlar olami hidlarini qamrovchi tamaddun – sivilizatsiya hidlari ham aks ettiriladi. Bu hidlar olamlarining jamlanmasi o'zining yaxlit va uyg'un birikishi bilan ulkan va ko'p ma'noli borliqni tashkil etadi. Zamonaviy ilm-fan tomonidan ko'plab murakkab va mo'jizakor hidlar aniqlangan hamda ular turli turkum va guruhlariga: uch xildan to'qqiz xilgacha-efirli, xo'shbo'y-aromatli, balzamli va boshqacha tasnif qilinadi. Chingiz Aytmatov romanlarida esa hidlarning asosiy ikki juftligidan – xo'shbo'y va yoqimsiz (ko'ngilsiz) turlari ustuvorlik qiladi.

Jonivorlarga xos hidlar dunyosi (asarda hayvonot olamining boshqa vakillari ham tasvirlanadi) aksariyat holatda fojeali taqdirilariga bosh qahramonlarning fojeali qismati bevosita bog'langan bo'rilar oilasi nar va moda bo'ri misolida tasvirlanadi. Bo'rilar o'zlarini xuddi insonlarning oilaviy juftligi kabi tutadi. Ularga muhabbat, bog'lanib qolish, nafislik, sog'inch, g'am kabi insoniy tuyg'ular begona emas, rashk hissini, asosan, moda bo'ri Akbara sezadi va bu sezgi "xiyonatkor" eri – nardan *anqiyotgan ko'ngilsiz hidni idrok etilishi* orqali, uni maxsus tarzda xiyonatini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida fiziologik tafsilotlari bilan tasvirlanishi, odorizmlarning naqadar muhim yukni ko'tarib turganini ko'rsatadi. Bo'rilar uchun "yoqimsiz hidlar" turiga inson faoliyati va xatti-harakati hosilasida paydo bo'lgan hidlar, xususan, haddan oshib ketgan industrialashtirish hamda uning ijtimoiy toksinning boshqa shakli bo'lgan alkogolga hirs qo'ygani natijasidagi hidlar kiradi.

Akbara – ona bo'ri (shu o'rinda uni yashash makoni almashtirilmasdan oldin Oqdil, so'ngra Akbar va nihoyat, Akbara-ulug' laqablari bilan atashganligi e'tiborga molik) – Ona tabiat timsolini *inson bolasining, go'dakning hidi* aldaydi. U bolani o'zining yo'qolgan bo'rivachchasi o'rnida qabul qilmoqchi bo'ladi: "Bo'ri yuragida yig'ilib qolgan barcha mehrini unga to'kib solmoqchi bo'lib uning, *bolaning, hidlarini ko'ksini to'ldirib-to'ldirib iskamoqda edi*".

Ko'rinadiki, Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romani hamda "Oq kema" qissasi poetikasida matnning g'oyaviy-badiiy pafosi darajasiga yuksaltirilgan odorizmlar, koloristik va fonologik detallarning roli shu darajada katta va ahamiyatlidir. Biz esa buning ayrim o'rinlariga to'xtaldik, xolos.

Bobning (3.2.) paragrafi "*Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbekcha tarjimasida odorkolofonik birliklarning idrok etilishi, qayta yaratilishining muhim masalalari*" deb nomlangan. O'zbekistonda filologiya fani sohasida aytmatovshunoslik ma'lum darajada o'z o'rniga ega. Xususan, G'.Salomov, I.G'afurov, P.Mirzaahmedova, A.Rashidovlarning malakali, teran va dolzarb tadqiqotlari Chingiz Aytmatov asarlari badiiyatini o'zbek kitobxonlariga tushunarli bo'lishiga xizmat qildi. Yozuvchi ijodi bilan shug'ullunuvchilar paydo bo'lganligi bilan bir qatorda, uning asarlari tarjimalarini o'rganish sohasi hali hamon o'z tadqiqotchilarini kutib turibdi. Vaholanki, O'zbekistonda Chingiz Aytmatov asarlarining tarjimasini Ibrohim G'afurov, Asil Rashidov, Mahkam Mahmudov, Nabijon Boqiy, Yoqubjon Xo'jamberdi, Abduraim Otametov, Suyun Qorayev kabi taniqli va mashhur tarjimonlar amalga oshirishgan. Bu borada, ayniqsa, yozuvchining aksariyat asarlarini ona tilimizga o'g'irgan Asil Rashidov faoliyatini

alohida ta'kidlamoq kerak. Ham tarjimon, ham filolog-adabiyotshunos sifatida A.Rashidov Chingiz Aytmatov asarlarini tarjima qilishda va ommalashtirishda juda ko'p xizmat qildi.

Chingiz Aytmatov asarlarining o'zbekcha tarjimalarida ularning poetikasiga xos odorizmlar, koloristik va fonologik birliklarning idrok etilishi hamda qayta yaratilishi masalasini o'rganish davomida, qator noaniqliklar, yo'qotishlar, muallif uslubidan chekinishlarga dalillar uchradi. Ularning nashrdan nashrga ko'chishi, kamchiliklarning to'g'ri-rilanmaganligi, tarjimondan ham ko'ra noshir hamda muharrirlarning xato va kamchiligi desak, mantiqan to'g'ri bo'ladi. Yuqorida "Baydamtal sohillarida" (1967) hikoyasi Chingiz Aytmatov ijodining ikkinchi bosqichida yaratilganligining guvohi bo'lgan edik. Hikoyani A.Rashidov o'zbek tiliga o'g'irgan. Asar o'zining badiiy estetikasi va pafosi talabidan kelib chiqib, *rang* va *tovush* tasviriga boy. Hikoya matnining har bir qatori boshlanishidan *tovush – fonika* va *rang – koloristika* unsurlari bilan shakllantiriladi.

*Pishqirib*, quturib oqayotgan daryo o'zini qo'yishga joy topolmay, dara bo'ylab shovqin solardi. *Qosh qorayib qolgan* bo'lsa-da, ahyon-ahyonda o'rkach-o'rkach vahimali *qora* to'lqinlarning jon-jahdi bilan qirg'oq tomon tashlanishini ko'rish mumkin edi. Shiddatkor to'lqinlar kuch bilan toshlarga urilar va parcha-parcha bo'lib, yana *shovullaganicha* qaytib ketardi. Yana sal o'tmay suv bilan qoya to'qnashib, darani *gulduros ovozlar qoplab* olardi". Ta'kidlab ko'rsatilgan unsurlarning badiiy matn poetikasidagi vazifasi hikoyaning obrazlar tizimining uzviy, ajralmas qismiga aylantirilgan daryo obraziga borib taqaladi. Mustaqil *ovozli obraz* darajasiga ko'tarilgan daryo motivining matndagi roli va ahamiyati shunchalik muhimki, bosh qahramon uni xuddi jonli narsadek tilga oladi, murojaat qiladi. Biz bu jihatga, xuddi *tovushli obraz* to'g'risida to'xtalganimiz kabi, tadqiqotimizning oldingi fasllarida batafsil mushohada yuritganmiz.

Tovush obrazini, avvalo, xuddi badiiy obrazning o'zi kabi, idrok etish va tahlil qilish lozim. Tovush obrazi yoki turli ovozli, ohangli tovushlar yordamida yaratilgan tasvir obyekti – ideal borliq faktiga aylanib, unga o'xshash tarzda yaratiladi, ammo boshqa real obyektlardan farqli o'laroq, asarda ushbu reallikka muayyan, aniq tavsif – xarakteristika berish maqsadida ta'kidlab tasvirlanadi. Tovush yordamida tasvirlanadigan obyektlarni tanlash jarayoni, bu tovushni uzatishning o'ziga xosligi muallifning atrof-muhitga bo'lgan munosabatiga bog'liq bo'lib, uning berayotgan bahosini ko'rsatadi, yozuvchining badiiy tafakkuri o'ziga xosligini belgilaydi.

Keltirilgan parchani rus tilidagi asliyat bilan qiyoslaymiz: "Дождь обрушился внезапно. Мутные потоки, рожденные в мгновение ока, безудержно неслись по склонам, промывая зияющие овраги, с корнями вырывая старые ели, сталкивая в пропасти камни. В конце своего разрушительного бега они вливались в Байдамтал. Почерневшая, вздувшаяся река клочкотала в ущелье, не находя себе места. Было уже темно, и все же можно было разглядеть, как время от времени, вздыбившись черным валом, она набегала на берег. Ревущие волны со всего разгона ударялись о камни и, вдребезги разбившись, со стоном откатывались".

Shu kichik parchadayoq tarjimaning xatolari ko'zga yaqqol tashlanadi: "неслись по склонам" – "qiyalik, nishab, yonbag'irlar bo'ylab yugurib" kabi ma'no

ifodalaydi, tarjimon esa “dara” tushunchasini ishlatadi, ma’lumki, dara bu uzun, katta chuqurlik, makon ma’nosida keng va cho‘zilib ketgan chuqur, jar, soy; “промывая зияющие овраги – “angraygan, ochiq soyliklarni yuvib”, ehtimol “jarlik” tushunchasini ham shartli tarzda ishlatsa bo‘lar, ammo zinhor chuqur emas, aynan ochiq, lang angraygan; “Почерневшая, вздувшаяся река” – “qorayib, to‘lib, to‘yinib toshgan, to‘lishgan daryo”, tarjimada *pishqirib, quturib oqayotgan daryoga* aylanib qolgan, u qiynalganidan o‘zini qo‘yarga joy topolmasdan, “*darada sharaqlardi*”, shunchaki shovqin solardi emas. Zero, aytilganilek, bu jonlantirilgan, asar matnida alohida vazifalariga ega bo‘lgan tovushlar yordamida yaratilgan tovushli obraz (звукообраз), uning tasvirini odatiy sel tasviri kabi berilishi, matndan muallif Chingiz Aytmatov (boshqa ijodkor bo‘lishi ham mumkin) uslubiy individualligini yo‘qqa chiqaradi, bu tasvirlar orqali u yetkazmoqchi bo‘lgan g‘oya kitobxon nazaridan uzoqlashadi. Bir qaraganda, voqelik o‘zbek tilida silliq, ravon tasvirlanmoqda, ammo badiiy matnga xos epitetlar qo‘llanishida o‘ta erkin yondashilgan. Natijada, badiiy yuksak tovushli jonli obraz tasviri oddiy jo‘n tasvirga aylanib qolgan. Zero obrazga tabiat bilan bog‘liq bo‘ysunmas qudrat, ekologik muammolar hamda matnning badiiy-estetikasi va g‘oyasidan kelib chiqadigan boshqa qator vazifalar yuklangan. D.Quronov haqli ta’kidlaganidek, asliyatda qo‘llangan so‘zlarga ekvivalent so‘zlar topish bilan birga ularning joylashtirilishi – jumla qurilishiga ham jiddiy e’tibor berish zarur.

Odorokolofonik detallar Chingiz Aytmatovning mashhur “Qiyomat” romanida o‘zgacha tus oladi. Tarjimon I.G‘afurov uni mahorat bilan o‘zbekchalashtira olgan. Asar kompozitsiyasi, tuzilishi jihatidan nihoyatda qiziqarli. Unda bosh qahramonlardan bo‘lgan Akbara va Toshchaynarning hayot xotimasi, so‘nggi kunlari qalamga olingan. Asarda bu paytning, nuqtaning asar ibtidosi sifatida tanlanishi favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, bu paytlar nafaqat jonivorlar, balki kishilik jamiyatlari ham muayyan hayotiy chorrahaga kelib qolishgan paytlar edi. Asarning asosiy mazmuniga ko‘ra, romanga va tarixga doir zamon, davr nihoyatda o‘zaro o‘xshab ketadi. Unga ulkan umumbashariy global dilemma ta’siridagi og‘ir kechinmalar – Tabiat va Insonning hayot va o‘lim o‘rtasidagi tanlovi jarayoni aks ettirilgan.

## XULOSA

1. Jahon adabiyotshunosligida Ch.Aytmatov ijodi turli yodashuvlardagi ilmiy tadqiqotlar uchun obyekt sifatida tanlangan. Biroq, odorokolofonik birliklar poetikasi, ularning badiiy matndagi badiiy, estetik ahamiyati va roli alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan.

2. Jahon va rus adabiyotshunosligidagi odorokolofonik birliklar poetikasining tadqiqiga qaratilgan aksariyat ishlarda tovushlar poetikasini ovozli obrazlar sifatida o‘rganish keng ko‘lamda ekani kuzatiladi. Bu borada, aksariyat mualliflar, shu jumladan Ch.Pirs, M.Gorsheninalarning badiiy matnda ranglar tasnifi va ularning vazifalarini tadqiq etish nazariyasini ilgari surganliklari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Bu nazariy tahliliy ma'lumotlardan, o'ziga xos formulalardan mavzu doirasida bevosita foydalanish Ch.Aytmatov asarlarining tahlilida yaxshi natijalarga olib keladi. Xususan, tovush, rang va hid bildiruvchi birliklarning badiiy matnda qo'llanilishi muallifning qahramonlar ichki dunyosini tasvirlashida, ularning his-tuyg'ularini ifodalashida, badiiy g'oyalarni, xarakterlarni yoritishda, asar kompozitsiyasini shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratadi.

4. Ingliz adabiyotshunoslikda Ch.Aytmatov asarlari ijodining boshlanishidan AQSh, ingliz tilli Kanada adabiyotshunoslari tomonidan o'tgan asrning 80-90 yillarida keng qamrovda o'rganilgan. G'arb adabiyotshunosligida yozuvchi asarlari talqinida matnning poetik, badiiy-estetik va adabiy badiiy talqinini chuqurroq o'rganishdan ko'ra, muallifning o'sha davr siyosiy-mafkuraviy talablariga rioya qilishi yoki ularga zid tanqidiy munosabatda ekanligiga ko'proq e'tibor berilgan. Ingliz adabiyotshunoslari tadqiqotlarida Ch.Aytmatov asarlaridagi estetik jihatlarni bir yoqlama tahlil qilgan bo'lsalar-da, uning milliy va jahon adabiyoti rivojiga qo'shgan hissasi ulkanligini, mavzular talqini, xarakterlar yaratishdagi uslubiy novatorligini e'tirof etishgan.

5. Ch.Aytmatovning ilk hikoyalarida rang-tusni ifodalovchi birliklar tabiiy ravishda ma'lum bir maqsadda qo'llanilmagan bo'lishi mumkin, ammo bu keyinchalik yozuvchining ijodida qonuniyat darajasiga ko'tarilgan va asarlarida muhim poetik ahamiyat kasb etib, hikoyadan yuqori saviyali badiiy asarlar, serqirra insoniy xarakterlar o'sib chiqadi. Jumladan, *oq tushunchasi* dastlab sarlavha sifatida, keyinchalik hikoya nomi ("Oq yomg'irlar"), qissa bobi ("Chingizxonning oq buluti"), qissa sarlavhasi ("Oq kema") da kognitiv-semantik yadro maqomida qo'llanilgan.

6. "Baydamtal sohillarida" va "Qizil olma" hikoyalarida axromatik ranglar, xususan "qora" rangning yarim ko'rinishi va ohorlari keng qo'llaniladi (qoramtir suv, qorong'u, qora aralash, tund oqshom, zulmat, qoravut bulutlar). Bu tusdagi ranglar ko'magida hikoyada ma'naviy kuch va ilhom manbai bo'lgan Baydamtal daryosi tasvirlangan peyzaj kitobxonda katta tasavvuriy olamni yuzaga keltiradi. Peyzaj va uning tasviriga singdirilgan odorokolofonik birliklar hikoyada qahramonlarning ichki olami, hayotiy kechinmalari bilan birgalikda uyg'unlashadi va yozuvchining badiiy g'oyasi yoritilishiga ko'maklashadi.

7. "Yuzma-yuz" qissasi syujeti dinamikasida odoristika, uning ohorlari, turli xil ko'rinishlari namoyon bo'ladi. Bosh qahramon Saidaga juda tanish bo'lgan, hidlash hatto juda yoqimli tuyulgan tamaki hidi qissa o'rtalariga kelib "og'ir" tusga, yakuniga kelib esa, Ismoil obrazi bilan bog'liq holda aynigan, achqimtil va badbo'y tus oladi. Peyzaj va lirik chekinishlar qatorida uyg'un berilgan ranglar ko'pincha u yoki bu qahramon paydo bo'lishi yoki ularning biror harakati sodir qilinishi arafasida beriladi va bu muallifning ularga nisbatan munosabatini belgilaydi. Qissa asosida olib borilgan tahlilimiz natijasida muallif, asosan, axromatik ranglardan – qora va oq ranglarining ohorlari va turli tuslaridan keng foydalangan. Qissaning kompozitsion tarkibida ranglar bilan bir qatorda, fonika – tovushlarni ifodalovchi birliklar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ch.Aytmatov o'zining ilk asarlarida asosan atrof-muhitni analitik idrok etishga harakat qilgan bo'lsa, qissalarida esa u o'ziga xos sinkretik borliq obrazini chizishga moyillashgandek tuyuladi.

8. Qissadagi o‘ziga xos fonologik variatsiya hosil qiladigan dasht shovqini bunga yorqin misol bo‘lib, u atrofidagi turli tovushlar – arava g‘ildiraklari ostidagi mayda toshlarning shaqirlashi, poezd g‘ildiraklari ovozi va chinqirig‘i, Gurgurov daryosining uzoqdagi shaldir-shuldiri kabilar bilan aralashib ketadi go‘yo. Kuylayotgan dasht o‘ziga xos kamerton bo‘lib, keskin hissiy ta’sirchan vaziyatni hosil qiladi, uning ta’sirida nozikta’b va poetik qalb egasining kuylagisi keladi. Shu tariqa qissa poetikasi uchun nihoyatda ahamiyatli qo‘shiq motivi, adabiyotshunoslik uchun yangi tushuncha, “tovush makoni” paydo bo‘ladi. Bu major kayfiyatni yuzaga keltirish uchun muallif odoristik detal tasviriga ham murojaat qiladi.

9. Ch.Aytmatov uslubi ranglarni dinamik, serqirra ko‘rinishda tasvirlab, bu tasvirlarni turli badiiylik bilan bog‘lash imkonini beradi. Urush motivining koloristika vositasida tasvirlanishi bunga misol bo‘la oladi. Onaning taqdiri noma’lum o‘g‘illari haqidagi o‘ylari “qora” yoki Doniyorning ko‘nglida urushning nomi “qon bo‘lib qaynaydi”. Yozuvchi tomonidan bunday usulda metaforali ko‘chimlarning qo‘llanishi bir necha asarlarida kuzatildi, ammo aynan ushbu asarida muallif eng yuksak darajadagi badiiy ifodaviylikka erishadi. “Jamila” qissasida rang, hid va tovushlarning qo‘llanilishi favqulodda mahorat bilan o‘ylab amalga oshirilgan, shu sababli bu yozuvchining ijodiy uslubiga xos boshqa badiiy usullari orasida o‘zining mustah o‘rniga ega.

10. Ch.Aytmatov asarlarining o‘zbek tiliga tarjimalarida ularning poetikasiga xos odorizmlar, koloristik va fonologik birliklarning idrok etilishi va tarjimada mohiyatning qayta yaratilishida yo‘qotishlar, yozuvchi uslubidan chekinishlar borligi ko‘zga tashlanadi. Shunga ko‘ra qayd etish mumkinki, Ch.Aytmatov ijodining oxirgi bosqichida yaratilgan bir qator asarlarining asliyatini va ularning o‘zbek tiliga tarjimalarini, shuningdek, asarlardagi odorokolofonik birliklarning poetikasi hamda tarjima matnlarida ularni kitobxon kognitiv olamida to‘laqonli idrok etilishi masalalarini qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish natijasida faqat “Qiyomat” romani tarjimasi nisbiy mukammaldir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ  
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**  

---

**МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ТУРИЗМА И КУЛЬТУРНОГО  
НАСЛЕДИЯ “ШЕЛКОВЫЙ ПУТЬ”**

**АБДУСАЛАМОВА ЛОБАР АКБАР КИЗИ**

**ПОЭТИКА ОДОРОКОЛОФОНИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ТВОРЧЕСТВЕ  
ЧИНГИЗ АЙТМАТОВА (на материале его произведений на русском  
языке и их узбекских переводов)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и  
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ  
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/Fil3812.

Диссертация выполнена в Международном университете туризма и культурного наследия “Шелковый путь”.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (resume)) размещен на веб-странице научного совета ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) и Информационно-образовательном портале “ZiyoNet” ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:**

**Исмаилов Анвар Рустамович**  
кандидат филологических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Тоирова Дилфуза Файзуллаевна**  
доктор филологических наук (DSc), профессор

**Абдувахобова Умеда Маматюсуфовна**  
доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Ведущая организация:**

**Джизакский государственный педагогический университет**

Защита диссертации состоится «15» мая 2026 года в 12<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, Республика Узбекистан, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36; электронная почта: [info@samdchti.ru](mailto:info@samdchti.ru)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за № 63044). Адрес: 140117, Узбекистан, г. Самарканд, ул. Гагарина, 43. Тел.: (99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «24» апреля 2026 года.  
(протокол реестра рассылки № 28 от «24» апреля 2026 года)



**Н.З. Насруллаева**

Председатель научного совета по присуждению научных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

**У.У. Кулдошов**

Секретарь научного совета по присуждению научных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

**Д.А. Киселёв**

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

## **ВВЕДЕНИЕ (Автореферат диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировом литературоведении взгляды на изучение современных направлений поэтического анализа художественного текста, микродеталей текста, в частности одороколофонических единиц, все еще находятся в стадии формирования и остаются одной из наименее изученных тем междисциплинарного, особенно поэтико-структурного, психосемантического характера. К началу XX века во многих развитых странах мира стали признавать необходимость осмысления речи во всех ее микродеталях – в целостности как важного средства не только изучения языка, но и воспитания личности, обладающей интеллектуальным потенциалом, высокой духовностью, верной общенациональным и общечеловеческим ценностям. В силу этого перед литературоведением поставлена задача достижения важнейших выводов, вытекающих из современных жизненных критериев, на основе научно-методологических основ и изучения национального и международного опыта: поэтики важного социально-политического порядка – одороколофонических единиц, в частности, колористики, одоризмов и фонологии как объекта изучения литературоведения, которая является актуальной также в современной филологии.

В настоящее время в ведущих научных центрах мира реализуются широкомасштабные исследования по современным направлениям науки, включая лингвопоэтику, изучение языковой и художественной картины мира с помощью поэтического структурного анализа, а также межкультурные связи. Особое внимание в этих исследованиях уделяется таким проблемам, как восприятие художественного пространства в творческой деятельности писателя, определение роли когнитивных структур в процессе формирования содержания произведения. Метод поэтического анализа непосредственно связан и гармонирует с методом познавательного моделирования, открывая новые возможности не только для понимания художественного текста автором как его создателем, но и с точки зрения читателя для углубленного изучения этого продукта творчества. Когнитивный подход, с другой стороны, предполагает двусторонний и многосторонний диалог на уровне форм, обеспечивающих полноценное восприятие как лингвопоэтического содержания текста, так и художественного содержания, переданного в тексте, включая одоризмы, колористические и фонологические детали, которые позволяют выявить взаимосвязь между ними и помочь сравнить их сохранение при переводе и оценить восприятие.

Сегодняшнее положение нашей страны, ее место в мировом сообществе, а также различные факторы, связанные с глобализмом, требуют более серьезного подхода к вопросу о речи и ее поэтики. Проводимые в Узбекистане широкомасштабные реформы языковой политики привели не только к началу новой эпохи в развитии узбекского языка, но и к подъёму научно-исследовательской работы в области литературоведения на новый уровень. При этом повышается внимание к прикладным исследованиям, служащим для развития творческого, логического и ассоциативного мышления личности,

умения правильно и плавно выражать свои мысли в соответствии с речевыми условиями, совершенствования личности с развитой культурой общения и речи. Изучение иностранных языков и иностранной литературы в нашей стране, расширение международных связей и продвижение образцов узбекской культуры в других странах обретают важное социальное значение в качестве серьёзной политики государства. Рассуждая об основном духовно-нравственном факторе при воспитании гармонично развитого и интеллектуального поколения, Президент нашей страны утверждает следующее: «Наука и просвещение имеют первостепенное значение для повышения интеллектуального и духовного потенциала не только молодежи, но и всего нашего общества. Там, где не развивается наука, наблюдаются регресс, отсталость общества во всех сферах»<sup>7</sup>. Отсюда следует, что поэтика творчества Чингиза Айтматова, яркого представителя тюркоязычной мировой литературы, является объектом исследования именно такого большого научного значения. Художественный язык произведений Чингиза Айтматова, мастерство автора в использовании слов, поэтика одороколофонических деталей, описанных в его произведениях, и их передача в узбекском переводе, а также отношение англоязычного литературоведения к данной проблеме практически остаются не изученными; сравнительное исследование его произведений в теоретическом плане, с широким привлечением переводных текстов на узбекский язык – один из актуальных малоизученных исследовательских вопросов литературоведения.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, изложенных в Указах Президента Республики Узбекистан УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении концепции развития науки до 2030 года», Постановлениях Президента Республики Узбекистан ПП-3160 от 28 июля 2017 года «О поднятии на новый уровень повышения эффективности духовно-просветительской работы и развития сферы», № ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О Программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной продукции, повышению культуры чтения», Послании Сенату Олий Мажлиса и Законодательной палате от 24 января 2022 года, а также других нормативно-правовых документах в данной сфере.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

---

<sup>7</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <https://pm.gov.uz/oz/lists/view/679>

